“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlar, istiqboldagi vazifalar” mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi

// 27 November 2024 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tomonidan-joriy-yilning-o-tgan-davrida-ama



Bugun Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlar, istiqboldagi vazifalar” mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Unda “O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati hamda OAV vakillari ishtirok etishdi.



Matbuot anjumanida Jamiyatning joriy yildagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlash, tannarxni pasaytirish, ishga tushirilayotgan yangi investitsion loyihalar, eksport ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Ma’lumot uchun: 2024-yilning 9 oyida tovar mahsuloti hajmi 13,4 trln so‘mni, o‘sish sur’ati 107 foizni tashkil etdi, jami sof holda 1,096 mln tonna mineral o‘g‘itlar, shundan 847,3 ming tonna azotli, 87,7 ming tonna fosforli va 161,1 ming tonna kaliyli o‘g‘itlar ishlab chiqarildi, respublikaning 124 ta tumanida jami 275 ta 1,7 mln tonna sig‘imga ega mineral o‘g‘it vakolatli omborlari tashkil qilindi, yangi 5 ta davlatlar (AQSH, Meksika, Peru, Braziliya, Chili) bozorlari o‘zlashtirilib, jami eksport bozorlari 52 taga yetdi. Hisobot davri eksport ko‘rsatkichida mineral o‘g‘itlar ulushi 58,3 foizni, qolgan 41,7 foizi boshqa kimyoviy mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.



Shuningdek, tarmoq korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, energotejamkor loyihalar ishlab chiqish, mahalliy tadbirkorlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar va jahon brendlarini jalb qilish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.

Tadbir yakunida OAV vakillari tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob berildi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati